

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA MALAKA OSHIRISH
TIZIMINING TA’LIM SIFATI TAHLILI

Bekov Bek Valijonovich

*Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti Farg‘ona filiali direktor o‘rinbosari*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filialida malaka oshirish, ilmiy ishlar va innovatsion faoliyat jarayonlari natijalari va uni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya va sport, malaka oshirish, ilmiy ishlar, innovatsion faoliyat, ilmiy salohiyat, o‘quv va uslubiy adabiyotlar.*

KIRISH

Yangilanayotgan O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Chunki, jismoniy sog‘lom bo‘lgan insonning o‘z oilasiga, jamiyatiga ko‘proq foydasi tegishi hech kimga sir emas. Ommaviy sportni rivojlantirishda malakali mutaxassislarning sonini oshirish lozim bo‘ladi. O‘tgan davr mobaynida joylarda yangi sport inshootlari bunyod etildi, eskilari ta‘mirlanib, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Malakali kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizim sifatida shakllantirildi. O‘quv va uslubiy adabiyotlarning yangi avlodi yaratilayotganligi ham sportchi yoshlarimizni yetuk mutaxassis sifatida tayyorlashda o‘z samarasini bermogda [2,3,4,5].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qaroriga muvofiq Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Farg‘ona filiali Institutning yuridik shaxs bo‘lgan tarkibiy bo‘linmasi sifatida faoliyat olib bormogda [1].

MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqot materiali sifatida Farg‘ona filialida 2019-2023 yillarda Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida faoliyat yuritayotgan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya yo‘riqchilari, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari, shuningdek, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari, davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari, sport maktablarining trenerlari hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislarning malaka oshirish kursi natijalari va ularning matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMALAR

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 4 apreldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-355-son Qarorida ham jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni kasbiy, ma‘naviy-ahloqiy

saviyasini oshirish, sport ta’lim tizimini ilmiy-metodik ta’minlash, ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o’quv-mashg’ulot jarayoniga, xususan, sport ta’lim muassasalari amaliyotiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o’qitishning samarali shakllari va usullarini joriy etish, sport ta’lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish kabi muhim vazifalar va topshiriqlar belgilab qo’yilgan.


NATIJALAR

Filialda **2021 yilda 2680 nafar**, undan davlat maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya yo‘riqchilari-289 nafar, umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari-1451 nafar, professional ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari-52 nafar, sport maktablari trenerlari-888 nafar; **2022-yilda 2264 nafar**, undan davlat maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya yo‘riqchilari-389 nafar, umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari-1241 nafar, professional ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari-34 nafar, sport maktablari trenerlari-600 nafar; **2023-yilda 2971 nafar**, undan davlat maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya yo‘riqchilari-334 nafar, umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari-1756 nafar, professional ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari-37 nafar, sport maktablari trenerlari-844 nafarni tashkil etdi (Jadval).

Jadval

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filialida 2021-2023-yillarda tinglovchilar natijalari tahlili

Yo‘nalish	2021-yil			2022-yil			2023-yil		
	Soni	O‘tgan	Sifat %	Soni	O‘tgan	Sifat %	Soni	O‘tgan	Sifat %
MTT	289	152	52,6	389	304	78,1	334	257	76,9
Maktab	1451	1316	90,7	1241	1031	83,1	1756	1502	85,5
KHM	52	28	53,8	34	19	55,9	37	26	70,3
STM	888	786	88,5	600	528	88,0	844	780	92,4
Jami	2680	2282	85,1	2264	1882	83,1	2971	2565	86,3



Rasm. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filialida 2021-2023-yillarda sifat ko‘rsatgichi (%).

Kuzatuv yillarida sifat ko‘rsatgichi tahlilidan ma‘lum bo‘ldiki, 2021-yilda davlat maktabgacha ta‘lim muassasalari jismoniy tarbiya yo‘riqchilari sifat ko‘rsatgichlari – 52,6%ni, 2022-yilda eng yuqori 90,7%ni, 2023-yilda esa 88,55ni tashkil etib biroz sifat ko‘rsatgichi pasayishi kuzatildi, 2021-yilda umumta‘lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari – 90,7%ni, 2022-yilda 83,1%ni, 2023-yilda esa 85,5%ni tashkil etdi. 1451 nafar, 2021-yilda professional ta‘lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari – 53,8%, 2022-yilda 55,9%ni, 2023-yilda 70,3%ni tashkil etib, mazkur yo‘nalishda sifat ko‘rsatgichi sezilarli darajada ortganligi kuzatiladi, sport maktablari trenerlari yo‘nalishida esa 2021-yilda 88%ni, 2022-yilda 88%ni, 2023-yilda sifar ko‘rsatgichi eng yuqori 92,4%dan iboratligi qayd etildi (rasm).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tizimda amalga oshirilayotgan tadbirlar jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq sport ta‘limi sifatini ta‘minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish, o‘quv mashg‘ulotlari, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ilg‘or ta‘lim texnologiyalari va xalqaro tajribadan foydalanish, ilmiy va o‘quv-metodik tadqiqotlar olib borish hamda amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-355-son Qarori.

5. Стеценко Н. В., Широбакина Е. А. Цифровизация в сфере физической культуры и спорта: состояние вопроса //Наука и спорт: современные тенденции. – 2019. – Т. 22. – №. 1. – С. 35-40.

4. Воронин Д. М. Стратегия развития образования в сфере физической культуры и спорта //Современные здоровье сберегающие технологии-Орехово-Зуево: ГГТУ. – 2017. – №. 4. – С. 43.

3. Покровская Т. Ю. и др. Дистанционное обучение по дисциплине" Физическая культура и спорт" в условиях самоизоляции //Теория и практика физической культуры. – 2020. – №. 11. – С. 65-67.

2. Кудря А. Д., Буклова Н. И., Гладких Д. Г. Перспективные направления подготовки специалистов по физической культуре и спорту //Актуальные проблемы науки: от теории к практике. – 2015. – С. 217-220.